MAQSUD SHAYXZODANING IJOD YO‘LI

Qo‘ziboyev Behruz Bahodir o‘g‘li
Ochilov Bahodir Ramozon o‘g‘li
Toshkent davlat transport universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Maqsud Shayxzodaning ilm yo‘li, ijodiy faoliyati xaqida so‘z boradi. Qaysi tashkilotlarda ish-faoliyatlarini olib borganliklari xaqida ma’lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: Sharq haqiqati, gazeta, jurnalistika, ijodiy yo‘l, drammaturgiya.

Аннотация: В данной статье рассказывается о пути познания и творческой деятельности Максуда Шейхзаде. Дана информация об организациях, в которых они работали.

Ключевая слова: восточная действительность, газета, публицистика, творческий путь, драматургия.

Annotation: This article talks about the path of knowledge and creative activity of Maqsud Sheikhzadeh. Information is given about the organizations in which they worked.

Key words: Eastern reality, newspaper, journalism, creative way, dramaturgy.

Maqsud Shayxzoda O‘rta Osiyo Davlat universitetida bor-yo‘g‘i bir yil o‘qidi. 1928/1929 o‘quv yilidan keyin universitetni tark etib, Toshkent okrug partiya komiteti va ijroiya komitetining “Sharq haqiqati” gazetasi tahririyatida tarjimon bo‘lib xizmat qila boshladi. Mazkur gazeta 1928 yil dekabrida “Qizil O‘zbekiston” gazetasi tahririyatining o‘sha yillardagi respublika poytaxti Samarqandga ko‘chishi munosabati bilan tashkil etilgan edi. Birinchi soni o‘sha yilning 11 dekabrida O.Oysin muharrirligida nashr etilgan gazeta bor-yo‘g‘i ikki yil davomida faoliyat ko‘rsatdi va 1930 yil 24 dekabrdagi so‘nggi soni bilan chiqishda taqa-taq to‘xtadi. Shayxzodaning shu yillarda Oybek, G‘afur G‘ulom singari yosh o‘zbek shoirlari bilan tanishishi, o‘zbek tilini mukammal egallashga va she’riyat olamida nafas olishga intilishi uni universitetdan ketishga majbur etgan asosiy sabab edi. Ammo shu bilan birga universitetda dadil ijtimoiy-siyosiy qarashlarini bayon qilgan Muxtor Avezovning “Alash o‘rda” partiyasiga daxldor bo‘lganlikda ayblanib, qamoqqa olinishi ham uni - Mirzakalon Ismoiliyga qaraganda qozoq adibiga ko‘proq yaqin shoirni o‘z taqdiri to‘g‘risida o‘ylashga majbur etgan edi. Xullas, “Qizil O‘zbekiston” gazetasi tahririyati 1931 yili, respublikaning boshqa barcha markaziy idoralari qatori, Toshkentga ko‘chib kelishi bilan “Sharq haqiqati” gazetasi respublikaning o‘zbek tilidagi bosh nashriga qo‘shilib ketadi. Va Shayxzoda jurnalistlik faoliyatini endi “Qizil O‘zbekiston” gazetasi tahririyatida davom ettiradi. “Sharq haqiqati” gazetasida qisqa muddat

ishlaganiga qaramay, u xuddi shu davrda o‘zbek tilini qunt bilan o‘rgana boshladi. 1929yili o‘zbek tilida yozilgan “Traktor” sarlavhali birinchi she’rini shu gazeta sahifalarida e’lon qildi. Bu, atoqli shoirning o‘zbek tilidagi birinchi she’ri edi.

U shu vaqtdan boshlab umrining so‘nggi soniyasiga qadar o‘zbek adabiyotining ravnaqi yo‘lida ter to‘kib, adabiyotimiz xazinasini o‘ziga xos shayxona jo‘shqin she’r va dostonlar, drama va tarjimalar, publitsistik va adabiy-tanqidiy maqolalar bilan boyitdi. Shayxzoda “Qizil O‘zbekiston” gazetasida bir yildan mo‘lroq ishlaganidan keyin, 1932 yilning yoz oylarida, Karim G‘aybullayev yosh shoirni o‘zi muharrirlik qilayotgan “Yosh leninchi”gazetasiga ishga taklif etadi va u bir yil davomida shu gazetaning axborot bo‘limini boshqaradi. XX asrning olovli yillarida, zamona zayli bilan, o‘zbek diyoriga boshqa millatlarga mansub ko‘plab kishilar ko‘chib kelganlar. Shunday kishilardan biri Vog‘iz Muzaffarov 1929 yili Toshkentga kelib, dastlab “Komsomoles Vostoka” (“Sharq komsomoli”), so‘ngra “Yosh leninchi” gazetalari tahririyatida ishlagan. 1933 yilda yoshlar gazetasi muharriri Karim G‘aybullayev orqali Shayxzoda bilan tanishgan. Vog‘iz Muzaffarov shoir bilan bo‘lib o‘tgan uchrashuv va hamkorlik yillarini eslab, farg‘onalik adabiyotshunos Yo‘ldosh Solijonovning: “Shayxzodaning qanday xislatlarini qadrlaysiz?” degan savoliga: “E’tiqodini, – deb javob bergan va bunday so‘zlarni aytgan edi. - U buyuk e’tiqod egasi edi. Uni maqsadi va maslagidan hech narsa ajrata olmasdi. Keyin g‘oyat ehtirosli odam edi. O‘zi doim qaynab-toshib yurguvchi edi. Ayni chog‘da “ehtiros” so‘zini yaxshi ko‘rardi. Bilasizmi, biz u kishi bilan SSSR yozuvchilarining Birinchi qurultoyi materiallarini birga tarjima qilgandi. Shu qadar g‘ayrat va ehtiros bilan ishlaganki, ma’ruzalar “Yosh leninchi” gazetasida boshqa gazetalarga nisbatan oldinroq bosilib chiqqan. Shu qurultoyda Maksim Gorkiydan tashqari, N.Buxarin va K.Radek ham ma’ruza qilgan edi. Tarjimadagi bir jarayon haqida - Shayxzodaning bilag‘onligi, ongining teranligi va so‘z qadrini yaxshi anglab yetishini aytmoqchi edim. N.Buxarinning nutqi “Nado derzat!” degan chaqiriq so‘zlari bilan tugallangan edi.